

ODIL YOQUBOVNING “ADOLAT MANZILI” ROMANIDA OBRAZLAR XILMA-XILLIGI

Sharapov Xurshida

TTDSHUYyapon-ingliz guruhi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Odil Yoqubovning “Adolat manzili” romanidagi obrazlar xilma-xilligi, ularning badiiy talqini va ijtimoiy-ma’naviy mazmuni tahlil qilinadi. Asarda tog’li hududda yashovchi oddiy xalq vakillarining sodda, samimiy va halol hayot tarzi yoritilgan bo’lib, ular siyosiy jarayonlardan chetda turgan oddiy insonlar sifatida tasvirlanadi. Biroq ayrim ig’vogar shaxslarning tuhmatlari natijasida bu insonlarning taqdirida keskin burilishlar yuz beradi. Muallif har bir obrazni hayotiy, to’la-to’kis yoritgan: ijobiy qahramonlarga nisbatan samimiy mehr, salbiy obrazlarga nisbatan esa nafrat uyg’otuvchi badiiy tasvirlar orqali kitobxonda kuchli hissiy ta’sir uyg’otadi. Maqolada aynan shu obrazlar tizimi, ularning funksional yuklamasi va adolat g’oyasi bilan bog’liqligi chuqur tahlil qilinadi.*

Kalit so’zlar: *Odil Yoqubov adolat, halollik, samimiylik, tuhmat.*

KIRISH

O’zbek adabiyoti tarixida insoniylik, adolat va haqiqat uchun kurash g’oyalari doimo yetakchi mavzulardan biri bo’lib kelgan. Ayniqsa, 20-asr ikkinchi yarmi o’zbek nasrida bu g’oyalar zamonaviy ijtimoiy muammolar fonida badiiy talqin etilgan asarlar orqali keng ifodalangan. Ulardan biri – taniqli adib Odil Yoqubovning “Adolat manzili” romanidir. Ushbu asarda muallif sovet davrining murakkab ijtimoiy-siyosiy tizimi, adolatsizlik, tuhmat va ma’naviy zulm muhitida yashayotgan insonlar hayotini chuqur falsafiy va badiiy jihatdan tahlil qiladi.

Romanning badiiy kuchi, avvalo, unda yaratilgan obrazlar xilma-xilligi, ularning hayotiyliigi va individual qiyofasida namoyon bo’ladi. Muallif har bir obrazni soddalashtirmay, balki murakkab ijtimoiy muhitdagi pozitsiyasi, qarashlari, fe’l-atvori orqali ko’rsatib, o’quvchini o’ziga xos ma’naviy-estetik izlanishga chorlaydi. Aynan obrazlar tizimi orqali yozuvchi adolat uchun kurash g’oyasini asoslaydi, ijtimoiy hayotdagi ziddiyatlarni ifodalaydi va insoniylik mezonlarini savol ostiga qo’yadi. Ushbu maqolada romandagi asosiy obrazlar – Suyun Burgut, Marjonoy va Lochin siymolari misolida adibning adolatga bo’lgan munosabati, obrazlarning ichki kuchi, ularning dramatik qismati va g’oyaviy yuklamasi tahlil qilinadi.

Asosiy qism.

Suyun Burgut obrazi – halollik, mardlik va irodaning timsoli. Odil Yoqubovning “Adolat manzili” romanida bosh qahramon Suyun Burgut obrazi hayotiylik va ijtimoiy haqiqatga chuqur ildiz otgan badiiy siymo sifatida gavdalanadi. U tog’li qishloqda yashovchi, mehnatkash, ishbilarmon, uddaburon inson sifatida tasvirlanadi. Suyunning

harakatlari, qarorlaridagi mas'uliyat hissi, og'ir vaziyatlarda ham sarosimaga tushmay, oqilona yechim topa olishi uning kuchli irodaga ega, yetuk shaxs ekanligini ko'rsatadi.

Suyun xalq orasida "Suyun Burgut" laqabini olgan bo'lib, bu uning jismonan chaqqon, ruhan tetik, o'z fikrida sobit va amaliy harakatga moyil shaxs ekanligidan darak beradi. U o'lan, lapar aytishda ham usta bo'lib, xalq og'zaki ijodining nafisliklarini teran his qiladigan ijodkor qalbli insondir. Marjontov haqida aytgan o'lanlari orqali ham muallif qahramonining donishmandligi, fikrni badiiy vositalar bilan ifodalash qobiliyatini ochib beradi.

Asarda uning murakkab sinovlar qarshisidagi pozitsiyasi ayniqsa muhim o'rin egallaydi. Savxoz qo'rasidagi yong'in tufayli 600 bosh qo'y nobud bo'lganida, u oddiy cho'ponlarning aybini bo'yniga olmaydi, balki jamoatchilikni safarbar etib, o'zining 100 ta qo'ysini berib, qolganini esa xalqdan yig'ish tashabbusi bilan chiqadi. Bu harakati orqali Suyun Burgut faqat mas'uliyatli rahbar emas, balki fidoyi, jasoratli va mard inson sifatida namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, muallif qahramon obrazini soddalashtirmay, murakkab ijtimoiy ziddiyatlar fonida tasvirlaydi. Suyunning faoliyati va obro'siga hasad qilgan ayrim kimsalar unga qarshi "yumaloq xat"lar yozib, uni poraxo'rlikda ayblaydilar. Bu tuhmatlar markazdagi ayrim mansabparast tergovchilarga yoqadi – ular o'zlarini yuqori lavozimli generallarga ma'qul ko'rsatish niyatida begunoh insonni qamoqqa olishga, unga bosim o'tkazib aybni bo'yniga qo'ydirishga harakat qilishadi. Biroq Suyun Burgutning qat'iyati, halol yo'ldan og'maslik xususiyati uni sinishdan saqlaydi. U tergov davomida og'ir qiynoqlarga, ruhiy va jismoniy tazyiqlarga duch kelsa-da, o'z e'tiqodidan chekinmaydi. Nohaq qamalib, hatto jinoyatchilar bilan bir kameraga tashlanganida ham u ichki poklik va adolatga ishonchini yo'qotmaydi. Bu jihatlar uning obrazini ma'naviy barkamollik darajasiga olib chiqadi.

Asarning eng fojeali nuqtasi — tergovchilarning bosimi ostida, ayolini ham qamoqqa olish bilan tahdid qilishgach, Suyunning oriyatli, oilaparvar inson sifatida o'z joniga qasd qilishidir. Biroq bu o'lim – ruhiy mag'lubiyat emas, aksincha, mardona qarshilikning cho'qqisidir. Suyun tergovchilarning ayblovlari tan olmaydi, bu orqali u o'z qadr-qimmatini va haqiqatni oxirigacha himoya qiladi.

Suyun Burgut obrazi orqali muallif insoniylik, oriyat, halollik va mardlik g'oyalarini ilgari suradi. Bu obraz faqat adabiy qahramon emas, balki o'zbek xalqining adolatga bo'lgan ishonchi, haqiqat yo'lida kurashish ruhi timsoli sifatida ham qabul qilinadi.

Marjonoy obrazi – sabr, vafodorlik va ma'naviy qudrat timsoli. "Adolat manzili" romanida Marjonoy obrazi o'zining ichki go'zalligi, aql-zakovati va sadoqati bilan ajralib turadi. U bosh qahramon Suyun Burgutning turmush o'rtog'i sifatida roman voqealarida muhim o'rin egallaydi. Marjonoy — tashqi ko'rinishi chiroyli, ichki dunyosi esa yanada boy bo'lgan oqila ayol sifatida tasvirlanadi. U qishloq maktabida o'qituvchilik qilib, nafaqat oilaviy, balki ijtimoiy jihatdan ham faol shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Marjonoyning sodda, samimiy va to'g'riso'z fe'l-atvori uni xalq orasida hurmatga sazovor qiladi. U oddiy ayol emas — zamonaviy, fikrlovchi, hayotga teran nigoh bilan

qaraydigan, farzandlariga mehr beruvchi mehribon ona va Suyun Burgutga sadoqatli turmush o'rtiq sifatida romandagi voqealar rivojida asosiy tayanch obrazlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Marjonoy obrazi ayniqsa murakkab sinovlar davrida o'zining ma'naviy mustahkamligi bilan ajralib turadi. Suyun nohaq ayblovlar bilan hibsga olinganda, u sabr bilan barcha og'irliklarga bardosh beradi, ruhiy jihatdan sinmaydi va eriga bo'lgan ishonchini yo'qotmaydi. Ayol obrazining bunday kuchli ruhiy qiyofada tasvirlanishi — yozuvchining o'zbek ayoliga bo'lgan chuqur hurmat va e'tirofini ko'rsatadi.

Romanning dramatik cho'qqilaridan biri — tergovchilarning Suyunni “aybingni tan olmasang, xotiningni ham qamab qo'yamiz” deb tahdid qilishidir. Bu tahdid orqali yozuvchi Marjonoy obrazining chinakam fidokor ayol sifatida ko'zga tashlanishini yanada kuchaytiradi. U ayollar uchun an'anaviy bo'lgan faqat mehr-muhabbat emas, balki sabr, jasorat, or-nomus kabi murakkab insoniy sifatlarni ham mujassamlashtirgan.

Shunday qilib, Marjonoy — erkak obrazini to'ldirib turuvchi, mustaqil fazilatlariga ega, barqaror axloqiy pozitsiyasi bilan ajralib turuvchi mukammal ayol obrazidir. U orqali muallif faqat oilaviy mehr-oqibatni emas, balki o'zbek ayolining ma'naviy buyukligini, hayotning eng og'ir sinovlariga ham mardona bardosh bera olishini ochib beradi.

Lochin obrazi – pok niyat, oriyat va adolat izlovchi yosh avlod timsoli. Odil Yoqubovning “Adolat manzili” romanida Lochin obrazi yoshlar orasidan yetishib chiqqan, aql-zakovati, ma'naviy komilligi va yuksak oriyat hissi bilan ajralib turadigan ijobiy qahramon sifatida gavdalanadi. U Suyun Burgut va Marjonoyning yolg'iz farzandi bo'lib, ota-onasidan o'zlashtirgan fazilatlar – halollik, g'urur, sabr, adolatparvarlik kabi xislatlarni o'zida mujassam etgan. Muallif uni nafaqat oilaning, balki jamiyatning kelajagi sifatida tasvirlaydi.

Lochin – yosh bo'lishiga qaramay, butun ovulda hurmat va mehr-muhabbatga sazovor bo'lgan, ilm-fan va sportda faol ishtirok etuvchi yigit. Uning “Qaldirg'och” laqabli tulpori bilan viloyat musobaqasida g'olib chiqishi obrazning kuchli, tirishqoq va g'ayratli yosh avlod vakili sifatidagi qiyofasini yanada to'ldiradi. U kitobxon, fikrlaydigan, ma'naviy jihatdan o'sishga intiladigan yigit sifatida tasvirlanadi. “O'qimagan kitobi, bilmagan ijodkori yo'q” deb berilgan muallif ta'rifi Lochin obrazining intellektual salohiyatini ko'rsatadi.

Lochinning obrazidagi eng dramatik burilish – otasi Suyun Burgutga nisbatan uyushtirilgan tuhmatlar va uning nohaq o'limidan so'ng yuzaga chiqadi. Bu fojia yosh yigitning ruhiy holatiga og'ir zarba beradi. U adolat izlab, uyini tark etishga qaror qiladi, hattoki, adolatsizlikka toqat qilolmay, hayotiga nuqta qo'yishga urinish darajasigacha boradi. Biroq muallif Lochin obrazini shu holatda sinishiga yo'l qo'ymaydi – uning qalbida yashaydigan haqiqat va adolatga bo'lgan ishonch uni qayta tiklaydi.

Lochin obrazi orqali muallif yosh avlod vakillarining ruhiy holatini, ulardagi adolatparvarlik, oriyat, vatanparvarlik kabi ezgu tuyg'ularning qanchalik kuchli ekani, biroq ularni ezuvchi, bosim ostiga oluvchi ijtimoiy adolatsizliklar qarshisida qanday azob chekishini teran badiiy vositalar orqali yoritadi. Shuningdek, bu obraz roman g'oyaviy

tarkibining muhim bo'g'ini bo'lib, otaning yuragida tugamagan kurash va adolat talabi farzand yuragida davom etayotganini ifodalaydi.

Demak, Lochin – o'z zamonasining eng muhim muammolari bilan to'qnash kelgan, ammo haqiqat va adolat yo'lida kurashish ruhini yo'qotmagan yangi avlod vakili sifatida talqin qilinadi. U roman g'oyasining davomchisi, ruhiy merosxo'ri bo'lib, o'quvchini chuqur o'y va mulohazalarga chorlaydi.

Xulosa

Odil Yoqubovning “Adolat manzili” romanida yaratilgan obrazlar – badiiy matnning nafaqat estetik, balki g'oyaviy tayanchini tashkil etadi. Muallif har bir qahramon orqali muayyan ijtimoiy, axloqiy va ruhiy masalalarni ilgari suradi. Suyun Burgut obrazi – halollik, fidoyilik va mardlik timsoli bo'lsa, Marjonoy obrazi orqali o'zbek ayolining sabr-toqat, vafodorlik va ruhiy qudrati yuksak badiiy pog'onaga ko'tariladi. Lochin siymosida esa yosh avlodning oriyati, adolat izlovchi ruhiy olami, ma'naviy uyg'oqligi ifodalanadi.

Obrazlar xilma-xilligi romanning hayotiyligini, ko'lamini va ta'sirchanligini oshirgan. Har bir obraz o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy tizimdagi o'rnini anglatadi va adolat g'oyasining turli qirralarini ochib beradi.

Yozuvchining bunday murakkab obrazlar tizimini yaratishi uning realistik yondashuvi, chuqur ijtimoiy tahlilga intilishi va o'quvchiga ma'naviy ta'sir o'tkazish mahoratidan dalolat beradi.

Roman zamonaviy o'zbek adabiyotida adolat g'oyasi, ma'naviy iztirob va insoniylikni yuksak darajada badiiy ifodalagan asar sifatida o'z o'rniga ega.